

INDIVIDUAL O‘XSHATISHLAR VA ULARNING KONNOTATIV
MA’NOLARI

Tolibova Muhabbat

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Kirish. Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti o‘zining murakkab estetik izlanishlari, badiiy uslubiy yangilanishlari va inson ruhiyatining chuqur talqini bilan ajralib turadi. Bu davr nasrida an’anaviy tasvir vositalaridan voz kechib, zamonaviy adabiyotning lingvopoetik va ramziy imkoniyatlarini faol o‘zlashtirish jarayoni kuzatiladi. Aynan shunday kontekstda Nazar Eshonqul ijodi o‘zbek hikoyachiligining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida o‘rin egallaydi. Yozuvchining asarlarida individual-muallif o‘xshatishlari nafaqat badiiy tasvirning estetik vositasi, balki qahramonning ichki dunyosi, ijtimoiy-falsafiy ziddiyatlar va zamon ruhini ochishning asosiy lingvopoetik mexanizmiga aylanadi.

Tadqiqot dolzarbligi. Individual o‘xshatishlar muallif idiositilini belgilovchi muhim lingvopoetik birlik sifatida o‘rganilmoqda. Ular turg‘un o‘xshatishlardan farqli o‘laroq, originallik, kutilmaganlik va kuchli konnotativ yuklama bilan ajralib turadi.

Maqsad. Nazar Eshonqul hikoyalaridagi individual o‘xshatishlarni lingvopoetik va semantik-konnotativ jihatdan tahlil qilish.

Vazifalar:

- O‘xshatish tushunchasi va turlarini nazariy jihatdan yoritish;
- Muallifning individual o‘xshatishlariga xos xususiyatlarni ochib berish;
- Konkret misollar asosida ularning emotsional, baholovchi va ramziy ma’nolarini tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti: Nazar Eshonqulning hikoyalari.

Metodlar: lingvopoetik, semantik-konnotativ tahlil

O‘xshatish — badiiy adabiyotdagi eng qadimiy va samarali tasviriy vositalardan biri bo‘lib, ikki hodisa yoki predmet o‘rtasidagi o‘xshashlikni aniqlashga asoslanadi. Tilshunoslikda o‘xshatishlar turg‘un (an’anaviy, xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan) va individual-muallif (ijodkorning o‘ziga xos, original) turlariga bo‘linadi.

Individual-muallif o‘xshatishlari olimlar tomonidan “yozuvchining taxayyuli, kuzatuvchanligi va analogiya quvvati asosida yaratilgan, originallik, obrazlilik va ekspressivlikka ega” deb ta’riflanadi. Ular kontekst bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, oddiy tasvirdan ko‘ra chuqurroq emotsional va baholovchi yuklamaga ega.

Konnotatsiya esa o‘xshatishning emotsional, baholovchi va uslubiy komponentlarini o‘z ichiga oladi. Nazar Eshonqul ijodida bu unsurlar salbiy baho (umidsizlik, absurd, yolg‘izlik), ramziylik va psixologik chuqurlik orqali namoyon bo‘ladi. [1]

Nazar Eshonqulning “Xayol tuzog‘i” hikoyasidan olingan quyidagi parchada individual-muallif o‘xshatishlari va metaforik tasvirlarning zichligi yaqqol ko‘zga tashlanadi:

«Баъзи-баъзида ўша дўстлар учрашиб қолсак, юзимиздаги умид харобаларини, орзуларимизнинг вайрон бўлган иморатларини бошлиқларимизга ёқиш учун ўрганган ширинсуханлигимизу оҳорланган кўйлак ҳамда бўйнимизда бўғма илондек осилиб турадиган хушбичим бўйинбоғларимиз билан яширганча тезроқ хайрлашиб жўнаб қоладиган бўлганимизни нима билан изоҳлаш мумкин?!» [2] “Бўғма илондек осилиб турадиган ... бўйинбоғ” — eng yorqin va muallifga xos individual o‘xshatish hisoblanadi. Adib “ilon kabi” yoki “bo‘g‘ib turgandek” turg‘un ifodalarini qo‘llaganda ta‘sir kuchi bu qadar bo‘lmas edi. Bu holatda muallif aynan “bo‘g‘ma ilondek” variantini qo‘llaydiki, bu o‘xshatish juda originallik va aniqlikka ega. Oddiy “ilon” emas, aynan bo‘g‘ma (siqib o‘ldiruvchi) ilon ishlatilishi orqali kuchli konnotativ yuklama yaratilgan. Bu yerda bo‘yinbog‘ — zamonaviy “madaniy” qullik ramzi; siqish, nafas qisishi, erkinlikni yo‘qotish hissini ifodalab kelmoqda. Parcha orqali kuchli tanqidiy munosabat, ya‘ni jamiyat, mansab tizimi, “muvaffaqiyat” uchun o‘zligini bo‘g‘ish tasvirlangan. Bu o‘xshatish faqat tasvir emas, balki qahramonning ichki aziyati va ijtimoiy bosimni bir jumlada ochib beradi.

Ushbu parchada muallif tomonidan qo‘llanilgan “umid xarobalari” va “orzularimizning vayron bo‘lgan imoratlari” metaforik o‘xshatishlari kuchli konnotativ yuklamaga ega. Umid va orzular insoniy qurilishlar (imorat) sifatida ko‘rsatilgan, ammo ular vayron bo‘lgan holatda. Bu yerda ham individual xususiyat bor: muallif oddiy “umidlar so‘ndi” demaydi, balki **xaroba, vayron imorat** kabi arxitektura obrazlarini ishlatadi. Bu tasvir orqali o‘quvchi oldida butun bir vayronaga aylangan ichki dunyo paydo bo‘ladi. Konnotativ jihatdan umidsizlik, ruhiy xarobalik ma‘nolarini kuchaytiradi. Bu o‘xshatishlar turg‘un emas, muallifning shaxsiy taxayyuli mahsuli bo‘lib, o‘quvchida kuchli emotsional ta‘sir va fikrlashga undaydi. Ular orqali yozuvchi zamonaviy insonning ichki qulligi, o‘zligini yo‘qotishi va jamiyat oldidagi “maskalar” mavzusini ochadi.

“Yelkasiga yoyilgan sochlari xuddi qoyadan to‘kilayotgan selday silkillab turardi”. [3] Muallif ayol sochlarini an‘anaviy go‘zal tasvirlar (“ipak”, “to‘lqin”, “buloq”) o‘rniga tog‘ qoyasidan to‘kilayotgan kuchli, vahshiy sel (loy-tosh aralash oqim) bilan o‘xshatadi.

Bu o‘xshatish o‘zining **originalligi, dinamikligi va kuchli konnotativ yuklamasi** bilan ajralib turadi. Unda nafaqat tashqi go‘zallik, balki erkinlik, tabiiy qudrat, bir vaqtning o‘zida joziba va xavf tuyg‘usi ifodalanadi.

Yozuvchining individual o‘xshatishlari turg‘un (an‘anaviy) o‘xshatishlardan keskin farq qiladi. U oddiy, ko‘p uchraydigan analogiyalardan voz kechib, o‘rniga kutilmagan, original va kontekstual jihatdan boy tasvirlarni yaratadi.

Xulosa. Nazar Eshonqul hikoyalaridagi individual-muallif o‘xshatishlari uning idiostilining markaziy elementi hisoblanadi. Ular originalligi, konnotativ boyligi va ramziy chuqurligi bilan o‘zbek nasrining rivojiga muhim hissa qo‘shadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu o‘xshatishlar nafaqat tasviriy, balki dunyoqarash va baho bildiruvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva Z. Okkazionalizm va uning badiiy matndagi funksiyalari // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2022. – № 3. – B. 45–52.
2. Eshmuminov A.A., Xursandova K.A. Nazar Eshonqul hikoyalarida individual stilistik vositalar // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Vol. 3. – No. 4. – P. 112–120.
3. Eshonqul N. Xayol tuzog‘i: Hikoyalar va qissalar. – Toshkent: Sharq, 2004. – 256 b.
4. Eshonqul N. Ozod qushlar: Hikoyalar to‘plami. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 312 b.
5. Eshonqul N. Tobut: Tanlangan asarlar. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 428 b.

